



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TURIZM VA SOVET MAFKURASI(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi
Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro viloyati bo'ylab turizm sohasining sovet davridagi mafkuraviy ahamiyati va uning jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Sovet sotsialistik g'oyasi turizmni nafaqat dam olish vositasi, balki siyosiy va ideologik tarbiya vositasi sifatida ham qo'llaganligi yoritiladi. Maqolada Buxoroga sayohat marshrutlarining aniq dasturi orqali xorijiy fuqarolarda sovet sotsialistik g'oyasini shakllantirish jarayoni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turizm tashkilotlari faoliyati, ularning targ'ibotdagi o'rni va davlat siyosati bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida sovet davrida turizm tizimi mafkuraviy nazorat va ijtimoiy tarbiya mexanizmlaridan biri bo'lganligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Turizm, turist, ekskursiya, mafkura, targ'ibot, sotsializm, tarixiy yodgorlik, turistik dastur, delegatsiya, kolxoz.

ТУРИЗМ И СОВЕТСКАЯ ИДЕОЛОГИЯ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Бустонова Зилола Бустон кизи
Бухарский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируется идеологическое значение туризма в Бухарской области в советское время и его влияние на общество. Подчеркивается, что советская социалистическая идея использовала туризм не только как средство отдыха, но и как средство политического и идеологического воспитания. В статье рассматривается процесс формирования советской социалистической идеи у иностранных граждан через конкретную программу поездок по Бухаре. Также анализируется деятельность туристических организаций, их роль в продвижении и связь с государственной политикой. В результате исследования обосновано, что система туризма являлась одним из механизмов идеологического контроля и социального воспитания в советский период.

Ключевые слова. Туризм, турист, экскурсия, идеология, пропаганда, социализм, исторический памятник, туристическая программа, делегация, колхоз.

TOURISM AND SOVIET IDEOLOGY (IN THE EXAMPLE OF BUKHARA PROVINCE)

Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi
Bukhara State University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the ideological significance of tourism in the Bukhara region during the Soviet era and its impact on society. It is highlighted that the Soviet socialist idea used tourism not only as a means of recreation, but also as a means of political and ideological education. The article examines the process of formation of the Soviet socialist idea in foreign citizens through the specific program of travel routes to Bukhara. Also, the activities of tourism organizations, their role in promotion and their connection with state policy are analyzed. As a result of the research, it is justified that the tourism system was one of the mechanisms of ideological control and social

education during the Soviet period.

Keywords. Tourism, tourist, excursion, ideology, propaganda, socialism, historical monument, tourist program, delegation, collective farm.

Turizm jamiyatning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o‘rin tutadigan sohalaridan biridir. Turli tarixiy davrlarda turizm nafaqat dam olish va sayohat qilish vositasi, balki ma’lum g‘oyalar va qadriyatlarni targ‘ib etishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Ayniqsa, sovet davrida turizm tizimi davlat siyosati va mafkurasi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Bu davrda sayohatlar, ekskursiyalar hamda ommaviy turistik tadbirlar orqali fuqarolarda sovet ideologiyasi, vatanparvarlik va kollektivlik g‘oyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Buxoro viloyati o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy me’moriy yodgorliklari va madaniy muhitiga ko‘ra turizmni rivojlantirish uchun muhim hududlardan biri hisoblangan. Sovet davrida Buxorodagi tarixiy obidalar, muzeylar va madaniy maskanlar asosida turli ekskursiya marshrutlari tashkil etilib, ular orqali nafaqat hududning tarixiy merosi namoyish qilingan, balki sovet mafkurasiga mos ravishda talqin qilingan. Turistik ekskursiyalar davomida tarixiy voqealar va me’moriy yodgorliklar sovet ideologiyasi nuqtayi nazaridan tushuntirilib, jamiyatda yangi ijtimoiy-siyosiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilgan.

Mazkur maqolada sovet davrida turizmning mafkuraviy ahamiyati Buxoro viloyati misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, turistik tashkilotlar faoliyati, ekskursiya dasturlari hamda tarixiy obidalar orqali sovet mafkurasining qanday targ‘ib qilangani ilmiy manbalar asosida yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu doirasida adabiyotlar va arxiv manbalardan olingan ma’lumotlar natijasi tadqiqotga turlicha yondashishga sabab bo‘ldi. Kichik ilmiy tadqiqotga doir adabiyotlarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin. 1. Arxiv ma’lumotlari; 2. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Tadqiqot metodologiyasi uchun maqolani bayon etishda tarixiylik, xolislik, tanqidiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro o‘lkasiga 1970-80-yillarda kirib kelgan turistlar oqimini shartli ravishda kapitalistik va sotsialistik mamlakatlardan kelgan turistlarga bo‘lish mumkin. Kapitalistik mamlakatlarda turizm bu davrda sinfiy imtiyoz sifatida qaralgan bo‘lsa, sotsialistik mamlakatlarda asosan ishchilarning dam olish va madaniy hordiq chiqarish huquqi hisoblangan[1].

Buxoro vohasi diniy qadamjolariga boy o‘lkadir. Ammo Diniy ziyoratlardan turizmga samarali foydalanish o‘rniga Sovet davlati din bilan bog‘liq joylardan imkon doirasida foydalanmadi yoki cheklangan aniq dastur asosida turistik faoliyatni amalga oshirdi. Ammo sotsializm va ikkinchi jahon urushi qahramonlari mangu qo‘nim topgan manzillar “muqaddas ziyoratgohga” aylandi. Yosh avlodni sovet yurtiga bo‘lgan vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ushbu ziyoratgohlardan foydalanishga harakat qilingan.

Viloyatning tarixiy-me’moriy obidalar va muzeylarida moddiy ahvol, yo‘llardagi nosozliklar, umuman olganda infratuzilmadagi muammolar natijasida turistik holat qoniqarli bo‘lmagani uchun turistlarni aniq dastur asosida tuzilgan ta’lim muassasalari, qishloq xo‘jalik va sanoat ob‘yektlari, kolxoz, sovxozlarga turistik sayohat uyushtirilgan[2]. Bunday dastur shahar va tumanlar kesimida tuzib chiqilgan. Jumladan, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi va O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1974-yil 27-iyunda qabul qilingan “Respublikada xorijiy delegatsiyalar, xorijiy va sovet sayyohlarini qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatishning holati va uni yanada yaxshilash choralari to‘g‘risida”gi qarori yuzasidan Viloyat Qo‘mitasi raisi K. Murtazayev va Viloyat Ijroiya Qo‘mitasi raisi Sh.Xayrullayevlar qaror qiladi[3]: Qaror 2 qismdan iborat:

1. Eng yuqori partiya va davlat darajasidagi xorijiy delegatsiyalarning tashrif buyurishiga ruxsat berilgan sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari va muassasalari ro'yxatini tasdiqlash.

2. Xorijiy sayyohlar tashrif buyurishiga ruxsat berilgan sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari va muassasalari ro'yxatini tasdiqlash.

Delegatsiyalarning tashrif joylari quyidagilar etib belgilangan: Buxoro Qorako'l zavodi, Oktyabrning 40 yilligi nomidagi Buxoro oltin kashtachilik fabrikasi, G'ijduvon tumanidagi Engels nomidagi kolxoz, Romitan tumanidagi Oktyabrning 50 yilligi nomidagi davlat fermasi, Ordjonikidze nomidagi Buxoro pedagogika institute, Ibn Sino nomidagi viloyat kutubxonasi, Buxoro shahrining tarixiy va me'moriy yodgorliklari va yangi binolari[4].

Xorijiy sayyohlar tashrif buyurishiga ruxsat berilgan sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalar, tarixiy obidalar ro'yxati: Bular, Sanoat korxonalariga Buxoro shahrida joylashgan paxta kombinati, Oltin kashtachilik fabrikasi, Qorako'l fabrikasi, Paxta tozalash zavodi, ipak zavodi.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga Buxoro shahridagi "O'zqishloqxo'ztexnika" uyushmasi, Buxoro tumanidagi Shofirkon o'rmon xo'jaligi.

Kolxozlar Sverdlovskiy tumanidagi Sverdlov (paxtachilik)kolxozi, Oxunboboyev nomidagi (paxtachilik) kolxozi, Buxoro tumanidagi "Madaniyat" nomli paxta va chorvachilikka ixtisoslashgan kolxoz, G'ijduvon tumanidagi Engels nomi bilan atalgan kolxoz, Romitan tumani joylashgan Oktyabrning 50 yilligi nomidagi paxta va chorvaga moslashgan davlat fermasi[5].

Madaniyat, tibbiyot va ta'lim muassasalari ro'yxatiga Orjonikidze nomidagi davlat pedagogika institute, "Sitorai Mohi-Xossa" saroyi, Abu Ali Ibn Sino nomidagi viloyat kutubxonasi, P. Morozov nomi bilan atalgan Viloyat bolalar kutubxonasi, Viloyat stomatologiya klinikasi, ayrim maktablar(1-sonli maktab-internat, 14-maktab) va bolalar bog'chalari, Pioneerlar saroyi kiritilgan.

Shuningdek ayrim arxitektura yodgorliklari aniq qilib qo'yilgan. Bular: Labi Hovuz, Ismoil Somoniy maqbarasi, Qulbobo Ko'kaldosh madrasasi, Mir Arab madrasasi, Ulug'bek madrasasi, Mozori Chashma-Ayub, Bolo Xauz masjidi, Kalon masjidi va minorasi, Buxoro shahar devorlari va darvozalari, Mag'oki Attori masjidi, Talli Poch, Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, "Ark" muzeyi va qal'asi[6]. 1980-yillarga kelib ixtisoslashgan diqqatga sazovor joylar soni ko'paygan va 37 ta me'moriy obida dasturidan o'rin egallagan[7].

Nufuzli xorijiy delegatsiyalar va sayyohlarga aniq dastur asosida turistik xizmat ko'rsatishning sababi boshqa obyektlarning qoniqarsiz holatda saqlanishi, yetarlicha mablag' ajratilmasligi, ulardagi antisanitar vaziyat, umuman olganda davlat e'tiboridan chetda qolganligi edi. Bu holatni xorijiy sayyohlar ham o'z qaydnomalarida yozib qoldirishgan[8].

Ammo 1980-yillarga kelib viloyatda turizm sohasida ijobiy o'zgarishlar qilinganligi bilan bir qatorda Buxoro shahridagi Turizm Kengashi, viloyat kasaba uyushmalari kengashi va viloyat komsomol qo'mitasining xorijiy va sovet sayyohlarini qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatishdagi faoliyatida jiddiy kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Arxiv manbalarida sayyohlar, ayniqsa kapitalistik mamlakatlardan kelgan turistlar sovet davrida viloyat aholisining yutuqlari va ularning moddiy va ma'naviy hayotida yuz bergan chuqur o'zgarishlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmaganliklar, sayohatlarda aniq siyosiy yo'nalish yo'qligi, ko'pincha tarixiy o'tmishga e'tibor qaratilganligi, shu bilan birga xalqning me'moriy va madaniy durdonalarni yaratishdagi roli ko'proq ta'kidlanganligi rahbariyat tomonidan qoralangani haqida materiallar mavjud[9]. Bundan ko'rinadiki, sovet jamiyati turizmdan siyosiy-mafkuraviy maqsadlarda foydalangan.

Viloyat sayyohlik va ekskursiya tashkilotlarining barcha faoliyati Buxoro shahri va Buxoro viloyati aholisining faol dam olishini yanada yaxshilashni ta'minlashga, qolaversa Buxoroga Butunittifoq kasaba uyushmalari markaziy kengashi orqali kelgan xorijiy sayyohlarga, shuningdek, Butunittifoq va mahalliy yo'nalishlarda va sayyohlik poyezdlarida kelgan sovet sayyohlariga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga, sayyohlik va ekskursiya tadbirlarining

mafkuraviy va siyosiy yo‘nalishini hamda turizmning moddiy bazasidan foydalanish samaradorligini oshirishga hamda uni yanada kengaytirishga qaratilgan[10].

Sovet davrida turizm va ekskursiyalar tizimi hech qachon ijtimoiy – iqtisodiy tashkilot sifatida mustaqil faoliyat ko‘rsatmadi. Aksincha, kommunistik mafkuraning xizmatchisiga aylantirilib, sohaning ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi muhim funksiyasiga e‘tibor berilmadi[11].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sovet davrida turizm sohasiga nafaqat dam olish va sayohat qilish vositasi, balki sotsialistik mafkurani targ‘ib etishning muhim qismlaridan biri sifatida qarashgan. Buxoro viloyati misolida ham bu jarayon yaqqol namoyon bo‘ldi. Viloyatdagi boy tarixiy-madaniy meros, me‘moriy yodgorliklar, muzeylar, sanoat va qishloq xo‘jaligi obyektlari sovet davrida turistik marshrutlarning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilgan. Biroq ushbu obidalar va ijtimoiy obyektlar ko‘pincha sovet mafkurasi nuqtayi nazaridan talqin etilgan va shu orqali jamiyat ongiga ma‘lum g‘oyalar singdirilgan. Shu sababli sovet davridagi turizm tizimini o‘rganish nafaqat turizm tarixini, balki o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari va mafkuraviy siyosatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mansurov M. Sh. Sobiq Sovet davrida turizmning rivojlantirishning mafkuraviy asoslari. Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: №1 (70). 2021. –B. 106-109.
2. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond,4-ro‘yxat, 838-yig‘majild, 140-varaq.
3. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond,4-ro‘yxat, 838-yig‘majild, 149-varaq.
4. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond,4-ro‘yxat, 838-yig‘majild, 151-varaq.
5. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond,4-ro‘yxat, 838-yig‘majild, 152-varaq.
6. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond,4-ro‘yxat, 838-yig‘majild, 156-varaq.
7. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond,5-ro‘yxat, 79-yig‘majild, 2-varaq.
8. O‘zbekiston Milliy Arxivi .2753-fond. 1-ro‘yxat, 177-yig‘majild.2-varaq.
9. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1023-fond,5-ro‘yxat, 79-yig‘majild, 4-varaq.
10. Buxoro viloyati davlat arxivi. 1173-fond,1-ro‘yxat, 603-yig‘majild, 13-varaq.
11. Murodov H. Sovetlar davrida turizmning rivojlanishi va muammolari
12. (O‘zbekiston misolida). Образование и инновационные исследования (2024 год № 5).- B.37.